SABZAVOT DALALARIDA TARQALGAN BEGONA BIOLOGIYASI VA ULARGA QARSHI KURASH

B.S. Nasirov
Toshkent davlat agrar universiteti professori

Sh.A. G‘ulomov
Toshkent davlat agrar universiteti magistranti

ANNOTATSIYA

Maqolada sabzavot dalalarida tarqalgan begona o‘tlarga qarshi kurashishda, Pivot 10% s.e.k, Zenkor ultra gerbitsidlarini qo‘llashning samaradorligi bo‘yicha olingan tadqiqot natijalari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: sabzi, piyoz, pomidor, gerbitsid.

KIRISH

Bugungi kunda dunyoda aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirishda kartoshka va sabzavot ekinlarining yalpi hosili va hosil sifatini oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Sabzavot va poliz mahsulotlarini yetishtirish bo‘yicha Xitoy (202-205 mln.t.) birinchi o‘rinda turadi. Sabzavotchilik rivojlangan mamlakatlar Hindiston (68-75 mln. t), AQSh (34-36 mln. t.), Turkiya (17-21 mln. t), Italiya (12-15mln.t.), Rossiya (11,5-14,2 mln. t.), Yaponiya (11-13 mln. t.) va h.k. Aholi jon boshiga yiliga sabzavotlar yetishtirish Xitoyda 250-270, Italiyada 230-250, Polshada 150-160, AQShda 130-145, Yaponiyada120-140, Ukrainada 90-100, Rossiyada 86-94 kilogrammni tashkil etadi. Lekin, sabzavotlar yalpi hosilining 10-20 % i begona o‘tlar tufayli yo‘qotilmoqda. Dunyo dehqonchiligida 3000 dan ortiq turdagi begona o‘tlar tarqalgan va 40 dan ortiq turi katta zarar keltiradi. Ularga qarshi agrotexnik va kimyoviy kurash choralarini uyg‘unlashgan holda qo‘llab AQSh, Xitoy, Germaniya, Rossiya, Avstraliya, Janubiy Koreya, Hindiston, va boshqa mamlakatlarda yuqori natijalarga erishilgan.

TADQIQOTNING MAQSADI

Toshkent viloyatining sug‘oriladigan tipik bo‘z tuproqlari sharoitida begona o‘tlar va gulli parazitlarning turlari, sabzavot ekinlari maydonlarida tarqalishi hamda keltiradigan zararini hozirgi kundagi ahvolini aniqlash va ularga qarshi kurash choralarini ilmiy jihatdan asoslab berishdan iborat.

TADQIQOTNING VAZIFALARI

begona o‘tlar va gulli parazitlarini turlarining qishloq xo‘jalik ekin dalalarida tarqalishining hozirgi ahvolini tadqiq qilish;

sabzavot vakartoshka ekinlari dalalarida tarqalgan begona o‘tlar va gulli parazitlarning zararini o‘rganish;

begona o‘tlar va gulli parazitlarning urug‘larini unib chiqishi va bu jarayonga ta’sir qiluvchi omillarni o‘rganish;

sabzavot va kartoshka ekinlari dalalarida keng tarqalgan begona o‘tlar va gulli parazitlarga qarshi kurash choralarini asoslab berish;

begona o‘t va gulli parazitlarga qarshi tavsiya etilgan kurash choralarining iqtisodiy samaradorligini baholash.

Tadqiqotning ob’ekti sifatida Toshkent viloyatining yuqori, o‘rta, quyi qismidagi tipik bo‘z tuproqlar, begona o‘tlar va gulli parazitlar, pomidor, piyoz va sabzi ekinlari, pivot 10% s.e.k, zenkor ultra gerbitsidlari olingan.

TADQIQOT NATIJALARI

Toshkent viloyati sharoitida sabzavot ekinzorlarida avtotrof begona o‘tlarning 28 ta turi hisobga olindi. Ularning 20 ta turi bir yillik, 2 ta turi ikki yillik va 6 ta turi ko‘p yillik begona o‘tlar ekanligi aniqlandi. Toshkent viloyati sharoitida zarpechaklar parazitlik qilgan 75 ta turga mansub qishloq xo‘jaligi ekinlari va manzarali o‘simliklarda eng ko‘p tarqalgan turlar C.lehmanniana (52 turda), C. breviflora (50 turda). va C.monogyna (33 turda), kam tarqalgani C.appoximata (1 ta turda), C.chinensis (7 turda), C.epilinum (9 turda), va C.campestri (12 turda) ekanligi aniqlandi. Zarpechak urug‘lari unuvchanligini uzoq muddat saqlab, qulay sharoit kelganda unib chiqishi, uzoq davom etgan past harorat ta’siri va tuproq chuqurligining oshib borishi zarpechak urug‘larining unuvchanligini pasaytirishi qayd etildi. Zarpechak urug‘larini suvda qolib ketishi ularning unuvchanliga deyarli ta’sir etmasligi, besh oy davomida suvda saqlangan zarpechak urug‘larining unuvchanligi 73,0–92,0 foizni tashkil etishi aniqlandi. Pivot 10 % s.e.k. gerbitsidini piyoz, sabzida uchraydigan zarpechak turlariga qarshi eng yaxshi natija 1,0 l/ga me’yorda qo‘llanilganda qayd qilinib, bunda biologik samaradorlik nazoratga nisbatan kartoshkada 92,3 %, piyozda 89,1 % va sabzida 93,7 % bo‘lganligi aniqlandi. Pivot 10 % s.e.k 1,0 l/ga me’yorda qo‘llanilganda nazoratga nisbatan hosildorlik piyozda 43,6 %, sabzida 37,2 % yuqori bo‘ldi. Pivot 10 % s.e.k. gerbitsidini sabzavot o‘simliklarida parazitlik qiluvchi zarpechaklarga qarshi ishlatilganda rentabellik darajasi piyozda 194,5 % va 1915500 so‘m, sabzida 225,6 % va 4365500 so‘m bo‘lishi aniqlandi. Pomidor dalalaridagi begona o‘tlarga qarshi Zenkor ultra gerbitsidi 0,8 va 1,0 l/ga me’yorlarda qo‘llanilganda apreldan–avgustgacha biologik samaradorlik mos ravishda 83,4–90,1 va 85,9–91,8 foizni tashkil etgan. Zenkor ultra gerbitsidi 0,8 l/ga me’yorda

ishlatilgan variantda nazorat variantiga nisbatan 52,0 s/ga, 1,0 l/ga me'yorda qo'llanilganda 54,0 s/ga qo'shimcha pomidor hosili olindi.

XULOSA

Toshkent viloyatining tipik bo'z tuproqlari sharoitida tarqalgan begona o'tlarga qarshi kurash tadbirlarining samaradorligini aniqlash bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarning natijalari asosida:

sug'oriladigan maydonlarda zarpechak tarqalishini kamaytirish uchun zarpechak urug'ini tarqatuvchi manbalarda (sug'orish tarmoqlarining qirg'oqlari, dala chetlari) o'sadigan turli begona o'tlarga qarshi muntazam kurash olib borish, zarpechak urug'larini yo'qotish uchun zararlangan o'simlik qoldiqlarini daladan tashqariga chiqarib o'raga tashlash, yoqib yuborish va ko'mish, hamda shu joylarda tuproqni chuqur shudgor qilish; piyoz va sabzi dalalarida uchraydigan zarpechak turlariga qarshi Pivot 10 % s.e.k. gerbitsidini 0,3 % foizli konsentratsiyada 1,0 l/ga me'yorda ekinlarni ekish davrida qo'llash; pomidor dalalaridagi bir yillik begona o'tlarga qarshi Zenkor ultra preparatini pomidor ko'chatlari ekilgandan so'ng tasma usulida 0,8 l/ga me'yorda qo'llash tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Nasirov Bakhtiyor Salakhiddinovich Charshanbiyev Umuroq Yuldashevich, Eshankulov Jamoliddin Saporboy ugli. "Efficiency of application of herbicides which are samuray 33% ek, zellek super 10.4% ek and triflurex 48% ek against weeds in cotton fields" Web of Scientist: International Scientific Research Journal 2.09 (2021): 136-139.
2. Salakhiddinovich, Nasirov Bakhtiyor., Eshankulov Jamoliddin Saporboy ugli 2021 "Development of Irrigation Procedures for Shadow Varieties Planted After Autumn Wheat." International conference on multidisciplinary research and innovative technologies. Vol. 1. 2021. Google Scholar]
3. J Eshonkulov, B Kamilov Effect of irrigation regimes on the fertility of soybean and sunflower cultivars planted in repeated periods To cite this article: January 2023 IOP Conference Series Earth and Environmental ScienceDOI: 10.1088/1755-1315/1140/1/013006 Google Scholar]
4. Allanov, K.; Sheraliev, K.; Ulugov, C.; Ahmurzayev, S.; Sottorov, O.; Khaitov, B.; Park, K.W. Integrated Effects of Mulching Treatment and Nitrogen Fertilization on Cotton Performance under Dryland Agriculture. Commun. Soil Sci. Plant Anal. 2019, 50, 1907–1918. [Google Scholar] [CrossRef]
5. Norqulov U, Shamsiyev A, Eshonqulov J. Sardoba suv ombori toshqinidan keyingi tuproq tarkibidagi oziqa moddalarning o'zgarishi// O'zbeksiton zamini//Ilmiy-amaliy va innovatsion jurnal–Toshkent №2-2023–B.71-74
6. Norkulov, U., Izbazarov, B., Tukhtashev, B., & Eshonkulov, J. (2022). Effects of Sardoba Reservoir Flood on Irrigated Land. International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology, 2(2), 40-42.

7. Norkulov, U., Tukhtashev, B., & Eshonkulov, J. (2022). Change of Mechanical Composition of Soils after Flood of Sardoba Water Reservoir. International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology, 2(2), 36-39.
8. Abdalova, G.N.; Eshonkulov, J.S.; Sulaymonov, S.O.; Abdullayeva, F.M. Improvement of Cotton Nutrition Procedure and Irrigation Technologies. ACADEMICIA Int. Multidiscip. Res. J. 2021, 11, 720–723. [Google Scholar] [CrossRef]
9. Burievich, T. B., Olimovich, A. Eshankulov J.S., Turaevich, M.T 2021 Groundwater consumption and cotton productivity. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 2(09), 130-135. Google Scholar]
10. Norkulov U, Izbasarov B, Tukhtashev B, Eshonkulov J., Volume: 2 Issue: 2 2022 Effects of Sardoba Reservoir Flood on Irrigated Land, International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology e-ISSN: 2792-4025 40-42 p.
11. U Norqulov, Sh Axmurzayev, J Eshonqulov, S Raxmatullayev Toshkent viloyati sharoitidasoya dalasidagi zarpechakka qarshi zeta 100 g/l gerbitsidini qo ‘llashning samaradorligi 2022/12/31 RESEARCH AND EDUCATION 503-507 [Google Scholar] [CrossRef]
12. Tukhtashev B, Norkulov U, Izbosarov B Technology of proper use of saline soils in the conditions of Uzbekistan. E3S Web of Conferences 258, 03027 (2021) Google Scholar]
13. Izbasarov B.E, Norkulov U, Tukhtashev, Hikmatov Sh Influence Of New Types Of Horizontal Ditches On The Growth, Development And Yield Of Winter Wheat In Saline And Groundwater Surface Soils. Influence Of New Types Of Horizontal Ditches On The Growth, Development And Yield Of Winter Wheat In Saline And Groundwater Surface Soils 2021Google Scholar]
14. Norkulov U, Tukhtashev B, Eshonkulov J., Volume: 2 Issue: 2 2022 Change of Mechanical Composition of Soils after Flood of Sardoba Water Reservoir, International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology e-ISSN: 2792-4025 36-39 p. Google Scholar]
15. Ziyatov Musulman Panjiyevich, Shamsiyev Akmal Sadirdinovich, Kamilov Bakhtiyor Sultanovich, Abdalova Guliston Nuranovna, Abdurakhimov Shavkatjon Olimovich, Eshonkulov Jamoliddin Saporboy ugli. PJAEE, 17(6) 2020 Effective agrotechnology of cotton feeding in different irrigation methods. Palarch’s Journal Of Archaelogy Of Egypt/Egyptology 17(6). ISSN 1567-214x. 3415-3428 p. http://www.palarch.nl/index.php/jae/article/view/1335 Google Scholar]
16. Shamsiyev Akmal Sadirdinovich, Eshonkulov Jamoliddin Saporboyugli, Sultanov Umbetali Tazabayevich 2020 Growth and development of soy and sunflower varieties. Academician 10(11):1289-1291
17. Shamsiyev Akmal Sadirdinovich, Kamilov Bakhtiyor Sultanovich., Eshonkulov Jamoliddin Saporboyugli, Ashirov Y.R. Agrophysical and agrochemical properties of influence of recycled soya and soil of the field 2020 ACADEMICIA An International Multidisciplinary Research Journal August – India, 2020. – Vol. 10. – Issue 8. – P. 475-479

18. Dusbayev I R, Nasirov B.S, Ashirov Y.R, Eshonkulov J.S, Rashidov Q 2021 Methods of planting fine fluid cotton and effects of Herbicides. 2nd International Conference on Science Technology and Educational Practices. Turkey 251-254 p. Google Scholar]
19. Eshonkulov Jamoliddin Saporboy ugli., Shamsiev Akmal Sadirdinovich. Vol.5 NO. 2020 Congress (2020) ChanGES in water-physical properties of soil in repeated crop sunflower care. International congress on modern education and integration congress – India – Volume 5. – P. 89-90. Google Scholar]
20. Chorshanbiyev U.Y., Allanov Kh.K., Safaraliyev L.H., Berdiboev E.Y. The effect of organic fertilizer application in growing amaranth (amaranthus) plant. IOP Conference Series: Earth and Environmental Science. 2022 IOP Conf. Ser.: Earth Environ. Sci. 1140. 011021. 1-8.
21. Toshpulatov Ch., Tukhtashev B., Charshanbiev U., Mavlonov B. Effects of soil salt-leaching terms on growth, development, and yield of corn in Uzbekistan. IOP Conference Series: Earth and Environmental Science. 2022 IOP Conf. Ser.: Earth Environ. Sci. 1140. 013005. 1-9.
22. Charshanbiev U., Shodmanov M., Sultanov U., Dusbaev I. Effects of continuous application of Samurai and Zellek Super herbicides on cotton fields against weeds in the conditions of Uzbekistan. E3S Web of Conferences 258, 04052 (2021). 1-11.
23. Inagamova N., Rahmonov R.U., Charshanbiev U.Y., Nasirov B.S., Ruziev A.A. Washing the soil through irrigation erosion and measures to combat it. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR) - Peer Reviewed Journal. Volume: 6 | Issue: 12 |December 2020. 496-499.
24. Nasirov B.S., Charshanbiyev U.Y., Eshankulov J.S., Oblokulova J.B. Efficiency of application of herbicides which are samuray 33% e.k., zellek super 10.4% e.k. and triflurex 48% e.k. against weeds in cotton fields. Web of a scientist: International scientific research journal ISSN: 2776-0979 (Volume 2, Issue 9, Sep. 2021. 136-139. Google Scholar]
25. Charshanbiev U.Y., Muminov K.M. Successive Application of Samuray 33% e.c. and Zellek Super 10,4% e.c. Herbicides Against Weeds in the Fields or Cotton. International Journal of Science and Research (IJSR) ISSN (Online): 2319-7064. 1588-1591.
26. J Eshonqulov Q Rashidov, E Ravshanov, O‘tloqlashib borayotgan taqirsimon tuproqlar sharoitida soya navlarining rivojlanish dinamikasi//Innovative Development in Educational Activities 2023/4/16.
27. J Eshonqulov E Ravshanov, Q Rashidov, Sug‘oriladigan tipik bo‘z tuproqlar sharoitida kungaboqar navlarining o‘sishi va rivojlanishi//Innovative Development in Educational Activities, 2023/4/16.